
Fuqarolar murojaati ijobiy hal etilmoqda

Tuman hokimi va sektor rahbarlari mahallalarda borib hayotiy muammo va murojaatlarini hal etish maqsadida aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqotlar o'tkazishmoqda va xonadonbay yurib ularning muammolarini tinglashmoqda. Bu esa mamlakatimizda inson qadri naqadar aziz ekanligidan dalolat bermoqda. Kutilmaganda sektor rahbarlarining tashrifi xonadon egalari uchun quvonchli bo'lmoqda. Bundan tashqari, mahalladagi muammolar ham o'z yechimini topib bormoqda.

Xususan, "To'raobod" va "To'da" mahalla fuqarolari yig'inlarida yashovchi fuqarolar tomonidan xonadonlarida sizot (zax) suvlari to'planib qolayotgani xususida murojaat qilingan edi.

Ushbu murojaat yuzasidan tuman hokimi topshirig'iga asosan, mutasaddi tashkilotlar tomonidan zarur chora-tadbirlar belgilanib, amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2023-02-22 06:23:03